

BIOTEXNOLOGIYA: IJTIMOIIY, FALSAFIY VA AXLOQIY YONDOSHUV KONTEKSI SIFATIDA

Shermanov Isobek Chilmamatovich,
Dotsent, O‘zbekiston-Finlandiyapedagogikainstituti
shermanov1983@mail.ru

Annotatsiya:

Ushbu maqolada insoniyatga ta’sir etadigan turli jarayonlarni o‘rganishda falsafaning ontologik-gnoseologik yondashuvi, moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonlari, yuzaga kelayotgan turli iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar to‘qnashuvi hamda foydalanayotgan ilmiy-texnikaviy yutuqlar bugungi taraqqiyotimizning bir bo‘lagi sifatida o‘rin olayotgan biotexnologiya bilan aloqalar yoritilgan. Bundan tashqari biotexnologik xavflarning falsafiy jihatlarini shakllantirish, biotexnologiyalarni rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni gumanitar aks ettirish, ularning metodologik darajasi, biotexnologik amaliyotning rivojlanishi hamda ijtimoiy-gumanitar va falsafiy muammolarini aniqlash kabi ilmiy va nazriy dalillar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: biotexnologiya, biotexnologik jarayonlar, moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish, yondashuv, daraja, texnologiya, bioetika.

Jahon mamlakatlarida yuzaga kelayotgan falsafiy va axloqiy muammolar insoniyat o‘rtasida bevosita va bilvosita, yashirin, aniq va ravshan namoyon bo‘lib bormoqda. Biotibbiyotda, axborot texnologiyalarining rivojlanishida hamda nanotexnologiyaning boshqa ko‘plab tadqiqot sohalaridayangi imkoniyatlarning ochibberilishi “biotexnologiya” atamasining mazmun-mohiyatini yanada kengroq o‘rganishga imkon bermoqda. Shu munosabat bilan biotexnologiyaning rivojlanishi natijasida eng keskin falsafiy va axloqiy muammolar shakllanmoqda.

Moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonlari, yuzaga kelayotgan turli iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar to‘qnashuvi hamda foydalanayotgan ilmiy-texnikaviy yutuqlar bugungi taraqqiyotimizning bir bo‘lagi sifatida o‘rin olayotgan biotexnologiya bilan muhim aloqadadir. Biotexnologiya – bu tabiat va insonlarga maqsadli ta’sir etish orqali ular uchun foydali mahsulotlar yaratish hamda yangi kimyoviy texnologiyalar va boshqa bir qator tabiatshunoslik sohasidagi amaliy yutuqlar natijasida paydo bo‘layotgan bilim sohasidir.

“XX asrda o‘tgan so‘nggi texnologik inqilob eng yangi biotexnologik usullarning rivojlanishi bilan ajralib turadi”¹. Shu jihatdan, zamonaviy ahamiyatga ega bo‘lgan yangi texnologiyalarga ega bo‘lish, ular orqali insonlar o‘z ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar.

¹ Лидеман Р.Р. Молекулярная генетика и общество / Р.Р. Лидерман // Биотехнология и общество: реферативный сборник. – М., 1991. – С. 19.

biotexnologiyaning jamiyat rivojida o'rnini ko'rsatib beradi. Bunda milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, kimyo texnologiyalarning murakkabligi, iqtisodiy maqsadga muvofiq yo'naltirish, yangi, arzonroq va turli xil ishlab chiqilgan mahsulotlar (gormonlar, oqsillar, antibiotiklar, uglevodlar, spirtlar, vitaminlar va boshqalar) inson va uning bugungi hayotida juda zarurdir.

Biotexnologiya termini ikki qismdan iborat ya'ni – "bio" va "texnologiya". "biotexnologiya"ni asosi bios, ya'ni grekcha ildiziga taqaladi va u "bio", "hayot", "tirik olam" degan ma'noni bildirib, butun jonli jarayonni o'z ichiga oladi.

Albatta, bu jarayonlar inson va tabiat o'rtasidagi keskinlashuv sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa, ko'p jihatdan, insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadi bilan bog'liq bo'lib, ya'ni sog'liq, shaxsiyat, jamiyat va ijtimoiy farovonlikka erishish yotibdi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytib o'tganidek: "Jamiyat islohotlar tashabbuskori degan yondashuv kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Inson har tomonlama erkin va farovon yashaydigan yangi davlatni barpo etishdek buyuk xalq harakati tobora kengaymoqda. Bunday qudratli safda bo'lishning o'zi katta baxt, katta sharaftir. Bugun yaxshi niyatlar bilan juda katta marralarni o'zimizga belgilab olar ekanmiz, hayotimizning turli sohalarida muammo va kamchiliklar yetarli ekanini ham yaxshi tasavvur etamiz"². Bu o'rinda jamiyatimizdagi majburiyatning o'zini tan olish emas, balki bu qo'yilgan mas'uliyat nimalardan iboratligini hamda bu mas'uliyatni qanday taqdim etish mumkinligini amaliyotda ko'rsatishdir. Ya'ni, ma'lum ahamiyatga ega keng tarmoqli tamoyillarni asoslash, boshqa tomondan, berilgan vazifalarni falsafiy, axloqiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan tahlil etish muhimdir. "Bugun hayotning o'zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadokatli kadrlarga keng yo'l ochish bo'yicha samarali tizim ishlab chiqishni talab etmoqda"³, – deydi Sh.M.Mirziyoyev. Shu o'rinda ijtimoiy adolat va yaxshilik haqidagi falsafiy g'oyalar jamiyatda insonning o'zini o'zi rivojlantirishga bo'lgan tabiiy istagini amalga oshirishga, boshqa tomondan, biotexnologik innovatsiyalarning barcha yangi turlaridan foydalanish hozirgi vaqtda bir qator yondashuvlar orqali ajratib ko'rsatish mumkin. Ya'ni: Birinchi yondashuv, axloqiy va huquqiy masalalar tahlilini amalga oshiruvchi, falsafiy tafakkurga asoslangan, undan xabardor bo'lgan hamda turli ijtimoiy munosabatlarining fanlararo bilimlar tizimi bo'lgan bioetikadir.

Ikkinchi yondashuv, biotexnologiyalarni konvergensiya qilish (masalan, nanotexnologiyalarning biotexnologiyalarga birlashishi) hamda harakatlarini ko'rsatadigan terminologik tilning rivojlanishi sifatida namoyon etish.

²Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: O'zbekiston-2022 y - B. 19

³Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, -Т.: Ўзбекистон, 2018. Б. 90.

Uchinchi yondashuv, yangi turdagi xavf-xatar muammosi kontekstida mavjud bo'lgan bioetik yondashuvlarni qayta talqin qilish, nanotexnologiyalar bilan bog'liq sifatni shakllantirish hamda uning biotexnologiyalarga bo'lgan yondashuvlarni rivojlantirish.

To'rtinchi yondashuv, bu insonni takomillashtirishga doir fikrlarni tanqidiy tahlil qilish asosida axloqiy tushuncha va tamoyillarni sezilarli darajada kengaytirish.

Beshinchi yondashuv, biotexnologiyalarning taraqqiy etishi va biotexnologiyalar va hozirgi zamon texnologiyalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik natijasida falsafiy-axloqiy qarashlarning aks etishini ochib berish (gumanitar ekspertiza)dir.

Keyingi o'n yilliklarda biz zamonaviy biotexnologiyaning taraqqiyot bilan bog'liq jarayonlarga guvoh bo'lmoqdamiz. Gap texnologiya fanlarining so'nggi yutuqlariga, birinchi navbatda, ixcham ishlab chiqarish sanoatini yaratish haqida bormoqda.

Biotexnologiya termini, asosan, sanoat uchun muhim turli ishlab chiqarish faoliyatidagi biotransformatsiyani anglatadi hamda uning asosiy amaliy faoliyat yo'nalishlari (masalan, yangi turdagi oziq-ovqat va chorva ozuqalarini yaratish; hayvonlarning yangi zotlarini va o'simliklarning yangi navlarini ko'paytirish; biotexnologik usullarni shakllantirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish)dir.

Bundan tashqari biotexnologiya sun'iy tahlilning bir turi bo'lib, unda ilmiy bilishning zamonaviy xilma-xilligi mavjudligini aniqlash juda muhimdir. Buning uchun quyidagi muammolarni hal qilish lozimdir.

Biotexnologiyaning o'ziga xosligini ochib berish hamda falsafiy-biologik jixatdan tahlil qilish. Biotexnologiyani falsafiy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy muammolar bilan uzviy bog'liqligini tizimlashtirish va ochib berish.

Inson hayotiy faoliyatida muhim hisoblangan axloqiy, madaniy, texnologik, ilmiy, ijtimoiy, huquqiy aspektlarning biotexnologik jarayon bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatib o'tish.

Hozirda yangi biotexnologik usullarning ishlab chiqilishi va ilmiy jihatdan o'rganish XX asrning oxirlaridagi texnologik inqiloblar nomi bilan bog'liq hamda dolzarb masalaga aylandi. "Ijtimoiy sohani takomillashtirish va bu boradagi islohotlar bilan aloqador bo'lgan idoraviy axborot tizimlar, elektron resurs va ma'lumotlar bazalari mavjud emasligi ham bu boradagi ishlarimiz rivojiga xalal bermoqda"⁴. Bu davrda mikrobiologiya, bioximiya, genetika va boshqa barcha sohalarida sanoat ishlab chiqarish faol rivojlandi. Tabiiy va aniq fanlarning rivojlanish tadqiqot obyekti bo'lgan kimyo, fizika, amaliy matematika va kibernetika sohasidagi erishilgan yutuqlar ijobiy ahamiyat kasb eta boshladi.

XX asrning 70-yillarida ilmiy bilimlarning integratsiyalashib borishi natijasida ijtimoiy-madaniy hayotda biotexnologiya fenomini keng qo'llanila boshladi. Biotexnologiya turli texnologiyalar, chorvachilik, biologiya, meditsina va boshqa soha yutuqlari bilan emas, balki yangi turdagi ko'plab yangi sohalar bilan ham uzviy bog'liq rivojlandi. "Ammo biotexnologiya deganda, ular nafaqat biologiya, tibbiyot va ilmiy malakani talab qiladigan

⁴ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. - Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 2021. – B. 201.

boshqa fanlarning yutuqlaridan foydalanishni, balki bir qarashda bir-biriga bog'liq bo'lmagan juda ko'p turli xil texnologiyalarni – chorvachilikdan tortib, to genom bilan ishlashgacha, biologik xilma-xillikni saqlashga qaratilgan”⁵. Insoniyat tarixida biotexnologiya jarayoni kamroq texnologiyalarni o'z ichiga olsa, yillar sayin uning mohiyati ham murakkablashib bordi. Shu bois biotexnologiya termini etimologiyasini bilishni lozim deb hisoblaymiz.

Turli xil ijtimoiy guruhlariga turli yo'llar bilan ta'sir etish, texnologiya umumiy g'oyaga o'xshaydi. Jumladan, “Huquq falsafasi” kitobida Gegel: “Fuqarolik jamiyati – bu kishilarning o'z ehtiyojlari asosida huquqiy tizim orqali fuqarolar va ularning mol-mulklari xavfsizligini ta'minlash vositasi sifatidagi birlashmasidir”⁶, deb ta'kidlaydi. Tadqiqotchi M.Meta fikriga ko'ra, nanotexnologiya tadqiqotlari, ular atrofida yuzaga keladigan ijtimoiy muammolar hamda mavjud texnologiyalar muvaffaqiyatli integratsiya jarayonlari bilan amalga oshadi.

Insonning sun'iy texnologiyalar bo'yicha rivojlanishi texnologik qayta tiklash konsepsiyasi sifatida qarash mumkin. Ya'ni, modellashtirilgan ishlab chiqarish, insonni takomillashtirish, shu bilan birga, jamiyatning turli sohalarida texnologiyani rivojlantirishga tayyorgarlik allaqachon dolzarb muammoga aylanmoqda.

Biotexnologiyalarning faol rivojlanishi jamiyat uchun normativlikni shakllantirishning ikki omilidan kelib chiqadi: 1) biotexnologiya ta'siri natijasida yuzaga keladigan yangi imkoniyatlar; 2) ushbu imkoniyatlarni jamiyatga keng miqyosida integratsiyalashtirishdir. Bundan ko'zlangan maqsad muayyan texnologiyalar xavfini kamaytirish va bartaraf etish, muammoni hal qilish shu bilan birga, axloqiy va adolat tamoyillarni hurmat qilishga o'rgatishdir. Chunki, biotexnologiyalar atrofida shakllangan falsafiy va axloqiy muhitda olingan natijalar normativlik manbaiga aylanadi hamda xatarlarning yangi turlari aks ettiriladi va bir me'yorda baholanadi.

Shu bilan birga, biotexnologiyalarni rivojlantirishda ijtimoiy-gumanitar sohalarining roli ortib bormoqda. Biotexnologiyalar inson turmush tarzi sharoitini yaxshilash tashqari, ilmiy va amaliy faoliyatda o'ziga xos xususiyat kasb etib o'z oldiga ijobiy maqsad va vazifalarni belgilab olishi zarurdir. Bu esa insonlar uchun: yangi va xilma-xil mahsulotlarni olish imkonini; turli tadqiqotlar, boshqarish ustidan ongli nazorat qilishni; texnologik jarayonning ketma-ketligini tartibga solishni beradi.

Ilmiy faoliyat shakli sifatida qaralganda biotexnologiyaning asosiy xususiyatlari epistemologik, ilmiy va texnologik, prakseologik, iqtisodiy, axloqiy va boshqa shakllarida ko'zga tashlanadi. Shu bois hozirgi davrda keng rivojlanayotgan sun'iy intellekt, global axborot tarmoqlari va nanotexnologiyalarning biotexnologiya bilan o'zaro aloqada insonparvarlashtirish dolzarb bo'lib qolmoqda. Madaniy jarayonlar, insonlar tomonidan biotexnik ilmiy ishlarning ko'nikmalari, tajribasi, normalari va gumanistik g'oyalarni

⁵ Конвенция о биологическом разнообразии [Электрон. ресурс] - 16 март. 2012. – Режим доступа: <http://www.ecorazvitie.by/download/KonvBio.pdf>

⁶ Гегель Г.В. Философия права. – М.: Мир книги, 2009. С. 73.

o'zlashtirish natijasida biotexnologiya ijtimoiy hodisaga aylanmoqda. Natijada, biotexnologiya inson faravonligini yaxshilashda, u bilan bog'liq tegishli vazifalarni bajarishda ma'naviy-axloqiy muhitni rivojlantirishda hamda ijtimoiy-madaniy jarayonlarining tezlashuvini keltirib chiqardi.

Chunki texnologiya bir butunlikni tashkil etuvchi dinamik ya'ni o'zgaruvchan tizimdir. Shu bois, turli yondashuvlarni umumlashtiradigan bo'lsak, texnologiya - bu bilimlar tizimi va faoliyatning boshqarish usullari, biror aniq maqsadga yo'naltirilgan, foydali muammolar yechimi hamda ijtimoiy munosabatlardagi fikr va qadriyatlarining ma'lum bir tizimidir.

Bugungi kunda biotexnologiya jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Fan sifatida mikroorganizmlardan, barcha turdagi biologik tizimlardan amaliy foydalanishga asoslangan ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirishni o'rganadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish lozimligi, har bir oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot dargohi nufuzli chet el universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi shartligi"⁷ alohida ta'kidlangan. Shu bois nafaqat ilm-fanda, balki tabiat va o'simlik, hayvon to'qimalari, shuningdek, genetik jihatdan butunlay o'zgartirilgan organizmlardir.

Darhaqiqat, hozirgi yillarda falsafiy, axloqiy va ijtimoiy tadqiqotlarda biotexnologiya asosiy mavzu sifatida o'z rivovlanishini boshdan kechirmoqda. "Tarixan amaliy falsafa sifatida tushunilgan, ya'ni, birinchi navbatda, axloqiy tanlov uchun asos va inson harakatlarini axloqiy baholash mezoni sifatida tushunilgan etika zamonaviy biotibbiyot tomonidan yuzaga kelgan muammolarda uning rivojlanishi uchun kuchli turtki bo'ldi"⁸. Bu o'z navbatida bioetikani gumanitar tadqiqotlar doirasiga aylantirildi hamda biotexnologik qarashlarni liberal, ya'ni erkin qarashlarga aylantirdi.

Xulosa sifatida qaraydigan bo'lsak:

Birinchi, biotexnologiyada inson tabiiy ravishda harakat qiladi, hayotning turli shakllarini o'zgartiradi. Biotexnologik jarayonlarda inson ilmiy faoliyatining o'zi ma'naviy ishlab chiqarish shakli bo'lib, muhandislik va ishlab chiqarish faoliyatining xususiyatlariga ega bo'ladi.

Ikkinchi, biotexnologik innovatsiyalarning barcha yangi turlaridan foydalanish hozirgi vaqtda bir qator yondashuvlar orqali ajratib ko'rsatish mumkin. Ya'ni: 1) axloqiy va huquqiy masalalar tahlilini amalga oshiruvchi, falsafiy tafakkurga asoslangan, undan xabardor bo'lgan hamda turli ijtimoiy munosabatlarining fanlararo bilimlar tizimi bo'lgan bioetikadir. 2) biotexnologiyalarni konvergensiya qilish (masalan, nanotexnologiyalarning

⁷Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь. [uz.uz](https://www.uz.uz)01-2020

⁸ КиришйилдаБиоэтика.Остида ед. Юдина В. Г., Тишченко Р. D.M.: Тараққиёт-Анъана, 1998. Билан.10.

biotexnologiyalarga birlashishi) hamda harakatlarini ko'rsatadigan terminologik tilning rivojlanishi sifatida namoyon etish.

Uchinchidan, Madaniy jarayonlar, insonlar tomonidan biotexnik ilmiy ishlarning ko'nikmalari, tajribasi, normalari va gumanistik g'oyalarni o'zlashtirish natijasida biotexnologiya ijtimoiy hodisaga aylanmoqda. Natijada, biotexnologiya inson faravonligini yaxshilashda, u bilan bog'liq tegishli vazifalarni bajarishida ma'naviy-axloqiy muhitni rivojlantirishda hamda ijtimoiy-madaniy jarayonlarining tezlashuvini keltirib chiqardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. - Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 2021. – B. 201.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, -Т.: Ўзбекистон, 2018. Б. 90
4. Лидеман Р.Р. Молекулярная генетика и общество / Р.Р. Лидерман // Биотехнология и общество: реферативный сборник. – М., 1991. – С. 19.
5. Гегель Г.В. Философия права. – М.: Мир книги, 2009. С. 73.
6. Киришйилда. Биоетика.Остида ед. Юдина В. Г., Тищенко Р. D.M.: Тараққиёт-Анъана, 1998. Билан.
7. Конвенция о биологическом разнообразии [Электрон. ресурс] - 16 март. 2012. – Режим доступа: <http://www.ecorazvitie.by/download/KonvBio.pdf>
8. Chilmatovich, Shermanov Isobek. "FIN TA'LIM TIZIMINING O'ZBEK TA'LIM TIZIMIGA ISLOH QILINISHI SABABLARI." Ustozlar uchun 57.4 (2024): 39-42.
9. Chilmatovich, Shermanov Isobek. "HISTORY AND METHODOLOGY OF BIOGEN TECHNOLOGIES (ONTOLOGICAL-EPISTEMOLOGICAL ANALYSIS)." (2023).
10. Shermanov, Isobek. "BIOETIKA: FAN-TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH JARAYONIDAGI AHAMIYATI (ijtimoiy-falsafiy tahlil)." Farg'ona davlat universiteti 1 (2023): 194-194.
11. Chilmatovich, Shermanov Isobek. "Main tasks in the material and spiritual transformation of biotechnological processes." Asian Journal Of Multidimensional Research 12.7 (2023): 24-30.
12. Шерманов, Исобек. "Ижтимоий тараққиётда биотехнологик жараёнларни шакллантириш: муаммо ва таклифлар." Общество и инновации 3.6 (2022): 64-69.
13. Chilmatovich, Shermanov Isobek. "БИОТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАР ТАРАҚҚИЁТИДА МОДДИЙ ВА МАЪНАВИЙ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ УЙЎУНЛИГИ МАСАЛАЛАРИ." PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL SI-1 (2022).

- 14.Шерманов, И. "МИЛЛИЙ ИЖТИМОЙЙ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ВА УНИНГ МУСТАҚИЛ ИЖТИМОЙЙ ТАРАҚҚИЁТДА TUTGAN ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ." ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА 35.2 (2017): 103-104.
- 15.Шерманов, Иsobek Чилмаматович. "СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ: ОСНОВЫ МАТЕРИАЛЬНОГО И ДУХОВНОГО СООТНОШЕНИЯ." Актуальные научные исследования в современном мире 3-7 (2017): 142-146.
- 16.Shermanov, Isobek Chilmamatovich. "DIALECTIC AND SINERGETIC PECULIARITIES OF MATERIAL PRODUCTION PROCESS." Theoretical & Applied Science 2 (2017): 81-86.
- 17.Шерманов, И. Ч. "ИЖТИМОЙЙ ТАРАҚҚИЁТДА МАЪНАВИЙ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ ФАЛСАФИЙ МЕТОДОЛОГИК АҲАМИЯТИ." ILMİY XABARNOMA: 44.
- 18.Негматова, Шахзода, and Хасан Орипов. "Проблемы формирования интернет-грамотности среди молодежи." Наука и образование сегодня 5 (6) (2016): 37-39.
- 19.Negmatova, Shakhzoda Shukhratovna, and Nodirjon Ergashevich Togaev. "Diversity in social development." Школа Науки 5 (2019): 43-45.
- 20.Негматова, Шахзода, and Хасан Вахобович Орипов. "Влияние глобальных кризисов на духовность человека." Достижения науки и образования 10 (32) (2018): 33-35.
- 21.Negmatova, Shahzoda. "Competition between political parties in Uzbekistan." European Journal of Humanities and Social Sciences 1 (2016): 25-27.
- 22.Negmatova, Shahzoda Shuxratovna. "Legal processes of ensure of socio-economic competition." The Fourth International Congress on Social Sciences and Humanities. 2015.
- 23.Shukhratovna, Negmatova Shakhzoda, and Oripov Khasan Abdivakhobovich. "The influence of intellectual competition to social development in the 21st century." European science 7 (49) (2019): 44-47.
- 24.Shukhratovna, Negmatova Shakhzoda. "A Paradigm of Synergetics and Nonlinear Thinking." (2023).
- 25.Shukhratovna, Negmatova Shakhzoda. "Modern Scientific Thinking: Innovative And Euristic Aspects." The American Journal of Social Science and Education Innovations 3.10 (2021): 13-17.
- 26.Negmatova, Sh Sh. "THE CONCEPT OF COMPETITION IN THE SCIENTIFIC COMMUNITY." Актуальные направления фундаментальных и прикладных исследований. 2016.
- 27.Negmatova, Shahzoda Shuxratovna. "MORAL NORMS OF THE ECONOMIC COMPETITIVE." Teoretičeskaâ i prikladnaâ nauka 7.27 (2015): 44-47.